

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 4

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 4

www.tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Zilola Shukurova, Muattar Ahmedova “Qisasi Rabg’uziy” asari nusxalari va ularning matniy-qiyosiy tadqiqi	4
Saydakbarxon Valiyev “Nahju-l-farodis” asarida keltirilgan qirq hadis va ularning qiyosiy-tekstologik tahlili	20
Munavvar Olimova Huvaydoning Navoiy g’azaliga muxammasi xususida	46

ADABIYOTSHUNOSLIK

Abdulhamid Qurbonov “Yusuf va Zulayxo”: farzandlik tuyg’ularining tasviri	60
Rübabə Şirinova “Ədəb əl-bəhs” əsəri	79
Sardor Umarov Futuvvat va badiiy ijod: tahlil va talqin	91

LINGVISTIKA

Anvarbek Turdialyev Denov tojiklari nutqida qipchoq va qarluq shevalariga xos xususiyatlar	109
Farhad Rahimi Feraği Sözlüğünün Yanlısları Üzerine II	123

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
 DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
 EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
 EDITORIAL BOARD	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey)	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

CONTENTS	
TEXTOTOLOGY	
Zilola Shukurova, Muattar Ahmedova	
Manuscript Copies of “Qisas al-Rabghuzi” and Their Textual–Comparative Study	4
 Saydakbarxon Valiyev	
Forty hadiths and their comparative-textological analysis presented in the work “Nahju-l-farodis”	20
 Munavvar Olimova	
On Huvaydo’s Mukhammas Based on a Ghazal by Navo’i	46
 LITERATURE	
Abdulhamid Qurbonov	
“Yusuf and Zulaikha”: description of filial feelings	60
 Rubaba Shirinova	
“Adab al-bahs” work	79
 Sardor Umarov	
Futuwwa and Literary Creativity: Analysis and Interpretation	91
 LINGUISTICS	
Anvarbek Turdialiev	
Kipchak and Karluk Dialectal Features in the Speech of the Denov Tajiks	109
 Farhad Rahimi	
On the Mistakes of Feraği Dictionary	123

LINGVISTIKA

Denov tojiklari nutqida qipchoq va qarluq shevalariga xos xususiyatlar

Anvarbek Turdialiye¹

Abstrakt

XX asrning 50-yillarida fan sifatida shakllangan, o'zbek shevalarini o'rganishning yangi yo'nalishi (bosqichi) hisoblangan areal lingvistika bugungi kun tilshunosligida alohida tadqiq obyekti bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari o'zbek shevalarini o'rganish jarayonida kontoktologik aspektda o'rganilayotgan ishlar alohida ta'kidlanishi kerak, negaki til va shevalar ijtimoiy hodisa bo'lib doim rivojlanishda bo'ladi yoki iste'molchisi yo'qolgan til muomaladan chiqib ketadi. Ushbu maqola O'zbek tili Denov shevalarining tojik tili bilan aloqalariga bag'ishlanadi. Maqolada qarluq va qipchoq guruh shevalari hamda tojik tilidagi o'zaro ta'sir haqida fikr yuritilgan. Bizni tadqiqotimizdan oldin ham tojik tili va o'zbek shevalarining bir-biriga ta'siri alohida Namangan, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, janubiy Tojikiston o'zbek shevalari misolida o'rganilgan, ammo areal xususiyati e'tibordan chetda qolgan. Bizning kichik tadqiqotimiz hududdagi sheva xususiyatlarini areal tadqiqatiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *urug', qishloq, Oybarak, Sohibkor, farg'onachi, kaltatoy, ā lashish, tojik tili, kontakt, o'zbek-tojik tili ta'siri, "ikki tillilik".*

Kirish

O'zbek va tojik tilli aholi asrlar davomida bir geografik sharoitda hayot kechirib, o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lib kelganlar. Tarixan mazkur areallarda tojiklar yashab kelmoqdaki, bu esa, Denov kichik dialektal zonasidagi o'zbek va tojik tilli aholi asrlar davomida bir geografik sharoitda hayot kechirib, o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lib kelganligini, bu ikki xalqning urf-odati, kundalik turmush tarzi ularning tilida ham yaqqol sezilib turishini ifoda etadi.

Denov tumani aholi yashash joylari (qishloqlar) bo'yicha tekshirilganda aholi tarkibi quyidagicha ekanligi aniqlandi: qipchoq

¹ *Turdialiye Anvarbek Xusinovich* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: anvarbekturdialiye@list.ru

ORCID ID : 0000-0001-6866-3714

Iqtibos uchun: Turdialiye, A.X. 2024. "Denov tojiklari nutqida qipchoq va qarluq shevalariga xos xususiyatlar". *Oltin bitiglar* 4: 109 – 122.

lahjasi vakillarning qo'ng'iro't, juz (yuz), nayman, do'rmon, jovlivoy, qiyot, kenagas, ko'r, pirso'ydi//pirshayx, chelaki, jovgo'shti, no'g'oy, olchin, mojar, jaloyir, laqay, oyinli, karsagan urug'lari yashaydi. Asosan bu urug'lar Denovning Yangihayot (juz, qo'ng'iro't, sinachi), Nurli manzil (juz, qozoq, qirg'iz, tatar, sinachi, barlos), Ibn Sino (juz, tatar, kaltatoy, barlos), O'rikzor (juz, qo'ng'iro't, tatar, sherabodi, boshqird, xo'jalar, toqchilar, sangardagi, turkman, qozoq, sinachi), Buyuk kelajak (qo'ng'iro't, juz, qozoq, voxshivori, sangardagi, sinachi, turkman), Lolazor (qo'ng'iro't, sherobodi, juz, afg'on, toqchi, voxshivori, darbandi, dehqonobodi, g'uzori), Guliston (qo'ng'iro't, tatar, qirg'iz, toqchi, turkman, xo'ja, sinachi), Mehr-oqibat (qo'ng'iro't, juz, turkman, tatar, dehqonobodi, g'uzori, chinori, sinachi, rus, toqchi), Istiqbol (qo'ng'iro't, juz, qorategin, turkman, sinachi,) Jamatak (qo'ng'iro't, juz, turkman, kitobi, dehqonobodi), Tasma'soy (qo'ng'iro't, juz, to'langi, tatar, dehqonobodi, buxorolik, farg'onachi, sangardagi, machay, toqchi), Qovunlisoy (qo'ng'iro't, juz, oyinli, bolg'ali, ochamayli, farg'onachi, buxorolik, qarshilik, eronlik, qozoq, arab), Dunyotepa (qo'ng'iro't, dehqonobodi, ochamayli, kitoblik, kalbacha, sangardagi, boysunlik, oyinli, tojikistonlik, chinori, arab, turk, farg'onachi), Qo'zichoqli, Xo'jaxalqi (qo'ng'iro't, juz), Istiqlol yulduzi (juz, qo'ng'iro't, turk, tojik, barlos, muzobozori, chinori), Elobod, O'rta qishloq, O'zgarish, Obodon, Yangi obod, Namuna, Qiziljar, Ozod, Oqqo'rg'on, Yoshlik (qo'ng'iro't, juz, kalbacha, ko'r, chelaki, pirsayz, sinachi, kaltatoy, eshonlar) mahalla fuqarolar yig'inlariga qarashli qishloqlarda yashaydi.

O'rganilayotgan hudud aholisi bilan suhbat jarayonida ko'pgina aholi vakillari urug' nomlarini, o'zlarining kelib chiqish tarixini bilmasliklari, ayrimlari esa urug' nomini unutib yashagan shahri nomi bilan o'zlarini nomlaganliklari aniqlandi. Mazkur areallardagi aholi qipchoq lahjasi shevalarida muomalada bo'ladilar. O'rganilayotgan hudud qipchoq lahjasini ba'zi shevalarida -ā lashish sezilarli darajada yuqori: *ej k̄ānālgā qārab žūrsāñiz Āhmād ākā desāñiz ājtadi, qājt-qājt degān qājtmayan, sālamatma, nārjaqa, ayājñilar, qāmāx'ānalarī bār.*

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Denov tumanida O'zbek va tojik tilli aholi har bir qishloqda aralash yashab kelmoqda shu sabab ham hudud aholisining aksariyati ikki tilda qiynalmasdan muloqotga kirisha oladi. O'zbek va tojik xalqlari Surxondaryo viloyatining eng qadimgi aholi vakillari ekanligi tarixdan ma'lum. Bu xalqlarning tarixi So'g'd, Baqtriya, Farg'ona, Shosh tarixi bilan bevosita bog'langan [Юсупов 1957, 67]. G.A.Pugachenko va

E.V.Rtveladzelarning “Северная Бактрия Тохаристон” asarida ham miloddan avvalgi VI-III ming yilliklarda “Hisor madaniyati” davri bo’lganligi va bu yerlik aholi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug’ullanganligi haqida ma’lumot berilgan [Пугаченкова 1966, 13]. Ptolemey asarlari, Xitoy yodnomalari va V.V.Grigorevning Hind eposi “Maxabxorat” asarida ham hozirgi tojik xalqining eng qadimgi urug’lari Sharqiy Turkistonda Pomir va Tyanshan tog’larining etaklarida, Chu daryosi va Balxash ko’li bo’ylariga tarqaganligi haqida ma’lumotlar berilgan [Ўзбекистон халқлари тарихи. 1992, 46-48]. O’zbek va tojik xalqining o’zaro aloqada yashashi o’rganilayotgan hudud aholisining tili va madaniyatiga o’z ta’sirini ko’rsatgan. Denov tumanida o’zbek urug’larining turk-kaltatoy, kaltatoy, barlos, turk-barlos, musobozori (muso), uyg’ur, chigil, xalaj, yag’mo urug’-qabila birlashmalari va XV asrdan boshlab qo’ng’irot, yuz, do’rmon, laqay, nayman urug’ vakillari ko’chib o’troq yashashni boshlagan bo’lsa tojik tilli aholi ulardan oldinroq bu hududda yashaganlar.

Tojik etnonimi haqida ham bir qancha qarashlar mavjud. “Tojik” etnonimi o’rtaforschada “tazig” so’zining kelib chiqishi bilan bog’liq. Eron dunyosining sharqida so’g’dcha “tozik” so’zi jihod bayrog’i ostida u yerga bostirib kirgan xalifalik qo’shinlarini nazarda tutgan. O’rta Osiyoni bosib olgan qoraxoniylar turklari o’troq bo’lgan Eron aholisini belgilashda “tejik” so’zini keng qo’llashgan. Eron dunyosining narigi chekkasida “tejik” arman tilida barcha musulmonlarga berilgan nom edi. I.I.Zarubin bergan ma’lumotlarga qaraganda turk qabilalari o’troqlashgan musulmonlar ularning madaniyatini o’zlashtirgan va bo’ysungan aholini tilidan qat’i nazar “tāžik” nomi bilan yuritgan [Зарубин 1925, 6-8]. V.V.Bartoldning fikricha, esa bu qadimgi “tay” qabilasi nomiga borib taqaladi.

O’zbek va tojik tillari orasidagi so’zlarning aralash qo’llanish Mahmud Koshg’ariy davrida ham mavjudligi haqida A.K.Borovkov quyidagi ma’lumotni keltiradi: “Sharqiy Turkistonda Chu va Talas, Balasog’un, Taraz, Sayram shaharlarida aholi o’zbekcha va tojkcha (so’g’dcha) so’zlashgan” [Боровков 1952, 165-200.]. Mumtoz adabiyot namoyondalari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Maxmur asarlarida ham ikki tillik xususiyatini ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Durbek, S.Ayniy, H.Hakimzoda, G’.G’ulom, K.Yashin, Uyg’un va boshqa ko’pgina shoirlar ijodida ham bu kuzatiladi [Юсупов 1957, 77].

O’zbek, tojik tillarini o’rgangan M.S.Andreyev tojik tilini ikki katta guruhga bo’ladi:

1. Samarqand-Buxoro-Farg’ona guruh: izofali aniqlov-

chining 2 xil qo'llanishi *-mādārī bača, bačaja mādaraš*; kishilik olmoshi 3-shaxs birlik formasi *u, vay* so'zlaridan foydalanish.

2. Janubiy guruh: izofali aniqllovchining bir formasining qo'llanishi *-mādārī bača*; 3-shaxs kishilik olmoshi uchun *-u* ning qo'llanishi.

Denov tojiklari nutqida tasnifdagi 2 guruhning ham til xususiyatlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bizningcha aholi nutqida bunday til xususiyatlarini aralash qo'llanishi Denov tumaniga keyingi davrda ko'chirib kelingan (Farg'ona, Samarqand) va o'zlari ko'chib kelib joylashgan (Tojikiston, Afg'oniston) tojik tili aholi migratsiyasiga bog'liq.

Ikki til vakillarining uzoq asrlik o'zaro yonma-yon yashashlari o'zbek va tojik tillari kontaktini yuzaga chiqargan. Kontakt natijasida o'zbek tilidagi fonetik, grammatik, leksik birliklar tojik tiliga o'tgan, shuningdek, tojik tilidagi fonetik, grammatik, leksik birliklar o'zbek tili-shevalariga "ko'chgan".

Kichik dialektal zonadagi qipchoq, qarluq shevalariga tojik tilining ta'siri, ayniqsa, leksikada yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, tojikcha sabzi qipchoq shevalarida sabiz/sabzi, qarluq shevalarida sabzi ko'rinishida qo'llaniladi.

O'zbek adabiy tilida	Qarluq shevalarida	Qipchoq shevalarida	Tojik tilida
Arava	ärāvā	arava/araba	araba
bangi	bāñi	bañi	bangi
yostiқ	bāliš	bališ /bāliš	bolish
Darranda	dārrändä	dārrändä	darranda
Darcha	dārčā	dārčā	darcha
dastak	dāstāk	dāstāk	dastak
daxmaza	dāxmāzā	Daxmaza	daxmaza
Dori	dāri	dā:ri / dāri	doru
	kāpā	kāpā	kapa
Gajak	gāžāk	gāžāk	gajak
	Gāštāk	Gāštāk	gashtak
Gard	gārt	gārt	gart
	Gird(i)	Gird(i)	gird
	gūmānā	gūmānā	Gumona
		aptava/ attava	
	dāvčā	dāvčā	dovuchcha
	zardāli	zardali	Zardolu

Denov tumanining Dahana, Sina, Ko'kabuloq, Kuyovsu, Pojur, Sohobkor (Kuyovsu, Sina ko'chalar) qishloqlarida tojik tilli aholi guruh bo'lib yashaydi, Mehnatobod, Denov shahar, Yurchi qishloqlarida tojik tilli aholi yashaydi. O'zbek adabiy tilida qo'llanadigan ayrim o'zlashgan so'zlar har ikki tilda ham uchraydi: *buyaltir, direktr, rājis, kitāb, xalq, hāftā, gōšt, rāhbār, dasta* kabidir.

O'rganilayotgan hudud shevasida tojik tilidan o'zlashgan quyidagi so'zlarni ham ko'rishimiz mumkin:

O'zbek adabiy tilida	Shevada	Tojik tilida
so'ri	Supa	čārpāja
qovoq//oshkadi	Kadi	kādī//āškadu
olov	Alāv	ālāv
yengcha	Rapīda	rafida
to'n	čāpān // čāpān	čāpān
yostiқ	jāstīq // jastīq, dastīq, bālīš	tākijā
cho'ntak	Kista	kista
sop	Dasta	dasta
urug'	urīy // tuxīm	tuxum//urīy
mushuk	pišāk // mušuk	pišāk
novvos	hōkis // živānā	buqa
muqova	žild // ust	žilt

Bu so'zlar aksariyat o'zbek shevalarining lug'at boyligida mavjud. O'zbek shevalarini o'rganishda ikki tillilik termini ishlatilgan bo'lib bu aynan o'zbek va tojik tilli aholi yashaydigan hududlar shevasi haqida ma'lumot beradi. Masalan: V.Nalivkin va V.Nalivkinalar ham Farg'ona viloyat o'zbek va tojik tillarining munosabatini o'rgangan [Юсупов 1957, 78], M.Mirzayev "O'zbek tilining Buxoro guruppa shevalari" [Мирзаев, 1969], S.Rahimov Surxondaryo o'zbek shevalari (fonetika, leksika) [Раҳимов 1985, 390], T.Turg'unov "O'zbek tilining g'arbiy Farg'ona shevalari" (fonetik va morfologik xususiyatlari) [Турғунов 1968, 243], E.Sheraliyev "Shimoliy-sharqiy Tojikiston o'zbek shevalari leksikasi" [Шералиев 1974, 320], D.Ishondadayev "Namangan atrof tojik va o'zbek shevalarida so'z yasashning ayrim xususiyatlari" [Ишондадаев 1967, 185], X.Gulyamov Узбекско-таджикские языковые связи (лексико-тимологическое исследование) [Гулямов 1983, 169], D.Abdullayeva "O'zbek tili Oshoba

shevasining fonetik xususiyatlari” [Абдуллаева 1999, 148], H.Uzoqov “O‘zbek tilining Janubiy Farg‘ona shevalari (fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari) [Узоқов 1966, 230], A.Mamatqulov “Sherobod ž-lovchi shevalar” [Маматқулов 1965, 36-43] kabi ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir. S.Rahimov o‘zbek va tojik tili aloqalari haqida to‘xtalib, “Surxondaryo o‘zbek shevalari yuzasidan olib borilgan lingvistik kuzatishlardan shu narsa aniqlandiki, Boysun, Sariosiyo, Denov, Sherobod tumanlari territoriyasida ham xuddi Buxoro, Samarqand, Quyi Qashqadaryodagi shevalar singari “ikki tillilik” mavjud” [Раҳимов 1985, 89], – deydi. Keltirgan ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, Surxondaryo viloyatining boshqa tumanlaridagi ikki tillilik haqida axborot berilmaydi. Bizningcha, tadqiqotchi boshqa hududlardagi tojik tilli aholi haqida ma’lumotga ega bo‘lmagan. Ikki tilli aholi Uzun, Oltinsoy (1981-yil tashkil etilgan), Jarqo‘rg‘on, Bandixon, Muzrabot, Termiz shahar, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi tumanlarida ham mavjud bo‘lib, bu hududlarda ham tojiklar o‘zbek qipchoq va qarluq lahjasi vakillari bilan qo‘shnichilikda yashaydi.

Qo‘shnichilik ta’sirida hudud aholisi nutqida tojik tilining ta’siri va aksincha, tojik tilli aholining nutqida qarluq-qipchoq shevasiga xos so‘zlarning o‘zlashganligini ko‘rishimiz mumkin: gardon ~ **gardan**, bangi ~ **bāñi**, kam ~ **kam**, cho‘p ~ **čop** // kaltak, dast ~ **das**, peshtoq ~ **peštāy**, ustixon ~ **suyak**||**ustixan(qip-choqlarda)**, nozvig // nozviy ~ **rayxon**, zardop ~ **zārdap**||**zardāp**, yax ~ **jax**, muz.

Ushbu o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashgan so‘zlar Denov qarluq-qipchoq guruh shevalarida ham fonetik o‘zgarishlar bilan faol qo‘llanadi. Bundan tashqari shevalarda *-mand*, *-parast*, *-bop*, *-boz*, *-bon*, *-go‘y*, *-do‘z*, *-paz*, *-xo‘r*, *-parvar*, *-furush*, *-xona* singari affikslashgan tojikcha so‘zlar va *-be*, *-ba*, *-bar*, *-no*, *-xush*, *-ser* kabi qo‘shimchalar yordamida o‘zbekcha, arabcha so‘zlardan yangicha so‘zlar yasalganligini ko‘rishimiz mumkin: **bahramand**, **amalparast**, **menbop**, **nasihatgo‘y**, **mehribon**, **choypurush**, **etikdo‘z**, **ishqivoz**, **odamparvar**, **bechiqim**, **xushxabar**, **serhosil** kabi.

Tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarning aksariyati aniq bir predmet yoki obyektни ifodalab kelgan va o‘zbek shevalarida muhim o‘rin egallagan, shuningdek, yangi so‘zlarning yasalişigа ham asos bo‘lgan. Masalan: *dutor+chi*, *xursand+chilik*, *past+la+sh+ib*, *daraxt+siz*, *charm+gar+lik*, *zar-do‘z+lik*, *chilan+gar+lik*, *pilla+kash+lik*, **nimxo‘r**, **molxona**, **halvo+paz+lik** | **halvopurush**, **nishola+paz** | **nisholafurush** singari. Tojiklar bilan bir hududda uzoq davrlar aralash yashash natijasida o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevada qo‘llanadigan dialektal so‘zlar ham mavjud. O‘rganilayotgan

hududning Qoraxon, O'rta qishloq, O'zgarish, Obodon, O'shor, Sohibkor, Oybarak, Hazarboq' qishloq shevalarida kundalik turmush tarzi, kasb-kori, ish-faoliyati bilan bog'liq so'zlar faol qo'llanadi:

Kaltak ~ tajāq

Sāxtik ~ āmāch

Tabar ~ bālta

Surxča ~ qizilča, qizāmiq, čėčak

mirāb, murāb ~ su:či, suvči

satil ~ baqir, paqir

takja ~ jastiq, jāstiq, dastīq

žoja ~ ariq, ariy.

xišāva~ čāpiq

damād ~ kijāv, kujāv.

O'zbek tilidagi bir qator tojik tilidan kirgan so'zlar ikki tilda ham o'z ma'nosida qo'llanishini kuzatishimiz mumkin:

bālāxāna ~ yuqori uy, tepa uy, baland uy, ustki uy, uyning ikkinchi qavati; čārva (čahār-chor -to'rt, pā -oyoq, to'rt oyoqlilar) ~ chorva; – *aravakash, mo'ysafid, mardikor, laganbardor, tekinxo'r* kabi ko'plab so'zlar tojik tilida ham o'zbek tilida ham bir xilda qo'llanadi.

Ikki tilda ham ko'p sohalarda umumiy birlik mavjudligi sabab ularning leksikasida ham mushtaraklik mavjud:

boshpana ~ (bosh-o'zbekcha, pana-tojikcha)

xarsangtosh ~ (xarsang-tojikcha, tosh-o'zbekcha)

shirinso'z ~ (shirin-tojikcha, so'z-o'zbekcha)

yalangbosh ~ (yalang-tojikcha, bosh-o'zbekcha)

O'zbek va tojik tilidagi ayrim so'zlar qo'shilib yangi ma'no hosil qilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan: **xarsangtosh** so'zi – tojikcha “*xar-eshak, sang-tosh*” ma'nosida bo'lib, eshakday katta ma'nosida **xarsang** – katta tosh qo'llangan. Tojik tilidagi “**xar**” so'ziga tojikcha **sang** va o'zbek tilidagi **tosh** so'zlari qo'shilib **katta tosh** ma'nosini bergan. Bundan tashqari tojikcha siyoh so'zi aslida *qora* ma'nosida bo'lib, hozirgi kunda otga ko'chgan.

O'zbekcha *ko'k siyoh*- asl ma'nosi *ko'k qora*, ko'chgan ma'nosi “ko'k rang”. Bu so'zni *dilimni siyoh qilding*, ya'ni ko'nglimni og'ritding, xafa qilding ma'nosida qo'llanishi ham mavjud. Bundan tashqari Denov qipchoq guruhi shevalarida tojik tilidan o'zlashgan shunday so'zlar uchraydiki, ularning asl tojikcha so'z ekanligini, uning kelib chiqishini bilishmaydi. ž-lovchi sheva vakillari qarluq guruh shevasida muloqot qiluvchi aholini “tojiklar”¹ deb atashadi,

¹ Denov tuman O'shor, Sohibkor, Oybarak qishloqlarida yashovchi aholi ž-lovchi sheva vakillarini “o'zbaklar” deyishadi. Bunday atash Qashqadaryo, Buxoro

bunga sabab qarluq lahjasida soʻzlashuvchi aholi qadimdan tojiklar bilan oʻzaro qoʻshnichilikda yashashidir. Qipchoq lahjasi vakillari nutqida ham tojik tili elementlari koʻp uchraydi. Masalan: sochiqni olib kel ~ *dasta pāk (dastīpak)ni apke*, oshning suyagiga ehtiyot boʻl ~ *ašti ustixaniga extijat bol*, yulgʻun koʻp boʻlganmi ~ *žīñil(žūñil) mōl bōgāmā*, yulgʻun ilondek chirmashgan ~ *e ukayare žūñil mār bolīb ketgane*: *aa*, ha koʻp boʻldi ~ *hā mōl bōlli*, oʻzi rosa urush boʻldi ~ *ōzi rasā žaṇ bōldi*.

Tojik tilining oʻzbek tili (shevalari)ga taʼsiri boʻlganidek, oʻz navbatida oʻzbek tilining ham tojik tiliga taʼsiri katta. Masalan, oʻzbek va tojik tillarida undoshlarning artikulatsion bazasining bir xil boʻlishi uzoq vaqt bir-biriga taʼsiri natijasidir. Tojik tiliga oʻzbek tilidan oʻzlashgan **q** tovushi bunga misol boʻladi. Bu tovush sof turkiy tovush boʻlib, tojik tili mansub boʻlgan hind-yevropa tillarida yoʻq. Tojik tilidagi sirgʻaluvchi *ž* ning hozirgi oʻzbek shevalaridagi qorishiq-portlovchi *ž* kabi talaffuz qilinishi ham bu oʻzbek tili(shevalar)ning taʼsiri boʻlishi mumkin [Раҳмонбердиев 1989, 43-44]. Bundan tashqari tojik tilidagi soʻzlarga urgʻu tushishi ham oʻzbek tilining taʼsiri natijasi boʻlib, hind-yevropa tillaridagi urgʻuning tabiatidan farq qiladi.

Tojik tilida oʻzbek tilining taʼsirida morfologik shakllar **-či**, **-ča** affikslari juda faol qoʻllanadi: *yolgʻonchi* ~ *duroy+či*, *andava* ~ *andava+či*, *dutorchi* ~ *dutār+či*, *oʻgʻilcha* ~ *pisarča*, *qozoncha* ~ *deg+ča*, *choʻmichcha* ~ *ābgardān+ča*. Oʻzbek tilidagi **-loq(lāq)** affiksi **-lāh** shaklida qoʻllanadi: *toshloq* ~ *saṇ-loh*, *poʻstloq* ~ *post+loh(x)*.

Oʻzbek tilining tojik tiliga taʼsiri feʼl soʻz turkumida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Bunda oʻzbek tilida baʼzi soʻzlar koʻmakchi feʼl maʼnosida qoʻllanishi tojik tiliga ham oʻz taʼsirini koʻrsatgan:

Turmoq – istādan	Man dida istoda d(b)udam – Men koʻrib turgan edim
Oʻtirmoq – nišastan, šištan	Bečāra diroz kurtašrā xudaš dardeh karda šišta bud – Bechora kecha koʻylagini oʻzi yamab oʻtirgan edi
A y l a n m o q , yurmoq – gaštan	Šavharam dar armiya sihat va salāmat kār karda gaštaast – Erim armiyada sogʻ-salomat ishlab yuribdi
Bormoq, ketmoq – raftan	Nurali alav barin dargirifta raft – Nurali olov singari lovillab ketti

Kelmoq – āmādan, āmadan	Sāl hāi sāl ādam hāi kambayalrā kār farmuda haq kāšanra xorda āmadi – Yillar davomida kambag'allarga ish buyurib haqlarini yeb kelding
Qo'ymoq – māndan	Vajrā binem az vačhi tu ham bava gap zada memānem – Uni ko'raylik seni nomingdan ham gapirib qo'yamiz
Olmoq – giriftan, giftan	Isted ki man inrā ba daftari xātiram nāvišta giram – To'xtang men buni esdalik daftarimga yozib qo'yay
O'tmoq – guzaštan	Vāj rāhbārāni mrā tanqid kardaguzašt – U bizning rahbarlarimizni tanqid qilib o'tdi
T a s h l a m o q , otmoq – partāft an	Namedānist ki. či kār karda hamān dāyerā ki Zamira ba rui o guzašta ast šusta partājad – Qanday qilib Zamira uning yuziga tushirgan dog'ni yuvib tashlashni bilmas edi
Y u b o r m o q -firistādan	Nadihed, barham dāda fristoned ān xatrā – Bermang, yo'q qilib yuboring o'sha xatni

Yuqoridagi so'zlarning ko'makchi vazifasida kelishi tojik adabiy tilida ham uchraydi [Раҳмонбердиев 1989, 52]. Tojik tilida o'zbek tilidagi ba'zi yuklamalar ham qo'llanadi. Bular: *so'roq yuklamasi -mi*: -Inhā savyātii ganda-mi?

-*či yuklamasi*: -mā ba qadri xālamā jak čiz xaridem bined-či, xaridamā durust ast jā ne;

- *tasdiq yuklamasi* – *ha*: Havā bisjār xunuk-mi? –Ha havā xunuk, šamāli izyirin...;

- ko'rsatkish olmoshlari: **ana, mana**;

- *undov yuklamasi -ma*: (Ma, inrā tu gir) ham shunday o'zlashgan qo'shimchalardan biri ekanligi ma'lum bo'ldi.

Denov tojiklari nutqida 2 xil sheva mavjud bo'lib, so'z qo'llashda ham ikki xillik kuzatiladi. Masalan:

respān firston – ipni yubor	respān filtān – ipni yubor
Čilika havā te - chilikni ot	Čiliga qalāba te - chilikni ot
yirrāma nakun – g'irromlik qilma	Qalloba nakun – g'irromlik qilma
Mādgāva bandimi – sigirni bog'ladingmi	Mādgāva bastimi – sigirni bog'ladingmi
Gāva āmadu barzagāv na āmad	Barza gān na āmad
Āv xorid	Ov nošid
Giret avqat xored(t)	Giret avqat nošid

Čalāba nošid	Čalāba xored
Xami kalān āmadem	Beklisāj āmadem

O'shor qishloq shevasida tojikcha o'zlashmalarining kundalik turmush jarayonida ishlatilishini kuzatishimiz mumkin:

–Maktabning pastidan keling – *Maktabni pājidan hov pājčadan keliņ;*

- Adog'dan o'lchang – *Pājčadan olčañ.*

O'zaro aloqaga kirishgan tillarda so'z o'zlashtirish ikki tomonlama bo'ladi. Tojik tilida o'zbekcha leksik o'zlashmalar juda ko'p bo'lib, turli sohalarni o'z ichiga olgan. Bular: *av, avchi, ayron, ayg'ir, aka, alov, alo(ola), alotumshuq, burchak, butalaq, buqa, bala, yonbosh, bo'rdoqi, bo'g'cha, yo'rg'a, yog'iy, kurk, keksa, ko'chat, ozuqa, oybolta, oluq(sov'g'a), oqsoqol, og'ayni, sarqut, sanchoq, soy, talqon, telpak, tikka, tortuq, tag'o, to'rachi, tumshuq, to'qli, to'sh, chakka, chatoq, chaqrim, chumcha(cho'mich), cho'l, cho'ri, cho'qqi* va boshqa ko'plab so'zlar o'zlashganini ko'rishimiz mumkin. Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilining tojik tiliga sezilarli darajada ta'siri bor bo'lib, bu ta'sir tilning barcha o'rinlarida ko'rinadi. Sababi, o'zbek va tojik xalqlarining ming yildan ortiq o'zaro aloqada bo'lib kelganligi hamda til kontakti ham juda kuchli bo'lganligidir [Раҳмонбердиев 1989, 55]. O'zbek tili va tojik tilidagi o'zlashgan so'zlarning yana bir xarakterli xususiyati har ikki tilda sinonim, antonim, takroriy so'zlar va frazeologik iboralarning son va sifat jihatdan rivojlanishiga sabab bo'lyapti. Sinonimlarning hosil bo'lishi haqida K.Yusupov quyidagicha ma'lumot beradi.

a) umumxalq tilida asosan bir tasavvurni ifodalovchi turli so'zlar ichida ma'no jihatdan bir xillik, o'xshashlik, yaqinlik tug'ilishi natijasida: yaxshi – *yoqimli*, do'st – *yor*, qadrdon – *o'rtoq*.

b) ma'lum ma'noga ega bo'lgan so'zlar ustiga ayrim mahalliy dialektlardan shu so'zlarga ma'no jihatdan yaqin bo'lgan so'zlarning qo'shilishidan: katta – *ulkan*, aka – *og'a*, tovush – *sas*.

c) turli tillardan so'z o'zlashishi natijasida: manglay – *peshona*, kift – *yelka*, metod – *usul*.

O'zbek va tojik tilidagi so'zlar parallel qo'llanishi natijasida shevada ularning sinonimlari yuzaga kelganini kuzatishimiz mumkin.

manglay – peshona	o'rtoq – jo'ra, oshno (a)
ko'k – osmon	yayov – piyoda
ko'kat – sabza	oylik – maosh(mohuna)
quyosh – oftob	o'rnak – namuna

buloq – chashma	murt – mo‘ylab(muylab)
yaproq – barg	kuch – quvvat
chuchuk – shirin	buyruq – farmon
oltin – tillo	uy – xona
chayla – chodir	g‘azab – qahr
hiyla – nayrang	sog‘ – salomat
o‘t – olov	sanoqsiz – behisob
marta – safar	jimlik – sukunat
bo‘sh – sust	tovush – ovoz
ataylab – jo‘rtta(ga)	o‘y – xayol
cho‘g‘ – otash	yolqin – alanga

Ikki tilning o‘zaro aloqasi natijasida ayrim so‘zlar shu darajada birikishga ega bo‘lganki natijada bu sinonimlar juft so‘zlarni hosil qilgan: *to‘y-tomosha, qahr-g‘azab, sog‘-salomat, o‘y-xayol*. Bu so‘zlar har ikki tilda ham qo‘llanishi bilan xarakterlidir.

O‘zbek va tojik tilidagi aralashuv ko‘proq o‘zbek tilida antonimlarning hosil bo‘lishiga zamin yaratgan, bular: *ortiq – kam, o‘ng – chap, uzun – kalta, sog‘ – bemor*; o‘zbek shevalari bilan bir qatorda o‘zbek tilida ham tojik tilidagi ayrim antonimlarni to‘lig‘icha o‘zlashtirganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu antonimlar o‘zbek tilidagi antonimlar bilan parallel qo‘llanadi: *achchiq-chuchuk // shirin-bemaza*.

O‘zbek shevalarida qo‘llanadigan takroriy so‘zlar o‘zbek va tojik tillarining o‘zaro ta‘siri natijasida hosil bo‘lgan, ular tarkibiga ko‘ra:

- grammatik belgisiz takroriy so‘zlar: *kam-kam, baland-baland, oz-oz, yuksak-yuksak*,
- grammatik belgisi bo‘lgan takroriy so‘zlar: *kamdan-kam, shirindan-shirin, shahardan-shaharga, so‘zma-so‘z, ketma-ket, sog‘-nosog‘*,
- fonetik o‘zgarish sodir bo‘lgan takroriy so‘zlar: *sal-pal, oz-moz kabi*.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo‘lsak Denov shevasi o‘ziga xos arealni hosil qilgan va unda qaluq va qipchoq shevalari hamda tojiklar shevalari aloqa-aralashuv quroli sifatida asrlardan beri faoliyatda bo‘lib kelganligi o‘z tasdig‘ini topdi hamda o‘zaro qo‘shnichilikda, kontakda bo‘lgan til (sheva)lar ta‘siri doim ham bir xilda kechmasligi

ma'lum bo'ladi, albatta, bunda ustunlik iqtisodiy rivojlangan aholi tili(shevasi)ga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar

- Ashirboyev, S. 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
- Ashirboyev, S. 2023. *Areal lingvistika*. Toshkent: Bookmany Print.
- Юсупов, Қ. 1957. “Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро алоқаси”. *Учение записки IV. Филологическая серия*. Фарғона. ФерГПИ.
- Раҳмонбердиев, К. 1989. *Ўзбек тили контактлари*. Тошкент: Фан.
- Ўзбек халқ шевалари морфологияси. 1984. Тошкент: Фан.
- Маматқулов, А. 1965. “Шеробод районидаги “дж” ловчи шеванинг ундошлар системаси”. *Илмий асарлар*. Қарши. Тошкент: ҚДПИ, 17 китоб.
- Мирзаев, М.М. 1969. *Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари*. Ташкент: Фан.
- Раҳимов, С. 1985. *Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика)*. Тошкент: Фан.
- Турғунов, Т. 1968. *Ўзбек тилининг ғарбий Фарғона шевалари (фонетик ва морфологик хусусиятлари)*. Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.
- Шералиев, Э. 1974. *Шимолӣ-шарқӣ Тоҷикистон ўзбек шевалари лексикаси*. Филол. фан. номзоди... дис. Тошкент.
- Ишондадаев, Д. 1967. *Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз яшанинг айрим усусиятлари (Тожик ва ўзбек тилларининг ўзаро таъсири масаласига доир)*. Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.
- Гулямов, Х. 1983. *Узбекско-таджикские языковые связи (лексико-этимологическое исследование)*. Тошкент: Фан.
- Абдуллаева, Д. 1999. *Ўзбек тили Ошоба шевасининг фонетик хусусиятлари*. Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.
- Узоқов, Ҳ. 1966. *Ўзбек тилининг Жанубий Фарғона шевалари (фонетик, морфологик ва лексик хусусиятлари)*. Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.
- Пугаченкова, Г. А. 1966. *Халчаян. (к проблеме художественной культуры Северной Бактрии)*. Тошкент.
- Зарубин, И.И. 1925. *Список народностей Туркестанского края*. Ленинград.
- Turdialiyev, A.X. 2023. *The impacts of the tajik language on Denov's uzbek dialects*. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. (ISSN: 2660-6828). Volume. 11.
- <https://cajlp.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/issue/view/46>
- Боровков А.К. 1952. *Таджикско-узбекское двуязычие*. Ученые записки инс-та востоковедения.
- Шониёзов, К. 1962. “Қарлуқ қабиласи ва унинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар”. *Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари*, 4 китоб. Тошкент: Фан.
- Шониёзов, К. 1999. *Қарлуқ давлати ва қарлуқлар*. Тошкент: Шарқ.

Kipchak and Karluk Dialectal Features in the Speech of the Denov Tajiks

Anvarbek Turidaliyev¹

Abstract

Area linguistics, which was created as a science in the 50s of the 20th centuries and is considered as a new direction (stage) of the study of Uzbek dialects, is a special object of research in today's linguistics. Moreover, in the process of studying Uzbek dialects, the works studied from the contact logical aspect should be emphasized, because languages and dialects are a social phenomenon and are constantly developing, or a language that has lost its users disappears from circulation. This article is devoted to the relations of the Denov dialects of the Uzbek language with the Tajik language. The article discusses the interaction between the Qarluq and Kipchak dialects and the Tajik language. Prior to our research, the influence of Tajik and Uzbek dialects on each other was studied separately in the case of the Uzbek dialects of Namangan, Fergana, Bukhara, Samarkand and southern Tajikistan, but the areal feature was neglected. Our small study is devoted to the areal study of dialect characteristics in the region.

Key words: *clan, village, Oybarak, Sohobkor, farg'onachi, kaltatoy, ā letter, Tajik language, contact, influence of Uzbek-Tajik language, "bilingualism".*

References

- Ashirboyev, S. 2021. *Uzbek dialectology*. Tashkent: Nodirabegim.
Ashirboyev, S. 2023. *Areal linguistics*. Tashkent: Bookmany Print.
Yusupov, Q. 1957. *Interaction of Uzbek and Tajik languages*. Uchenie zapiski IV. Philological series. Ferghana: FerGPI.
Rahmonberdiev, K. 1989. *Uzbek language contacts*. Tashkent: Science.
Morphology, of Uzbek folk dialects. 1984. Tashkent: Science.
Mamatkulov, A. 1965. *Consonant system of the "dj" dialect of Sherabad district*. Scientific works. Karshi. Tashkent: QDPI, 17 books.
Mirzaev, M.M. 1969. *Dialects of the Bukhara group of the Uzbek language*. Tashkent: Science.
Rahimov, S. 1985. *Surkhandarya dialects of the Uzbek language (Phonetics,*

¹ Anvarbek Turdaliyev – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mai: anvarbekturdaliyev@list.ru

ORCID ID : 0000-0001-6866-3714

For citation: Turdaliyev, A.X. 2024. "Kipchak and Karluk Dialectal Features in the Speech of the Denov Tajiks". *Golden scripts* 4: 109 – 122.

Lexicon). Tashkent: Science.

- Turgunov, T. 1968. *Western Fergana dialects of the Uzbek language (phonetic and morphological features)*. Filol. science. name ...dis. Tashkent.
- Sheraliev, E. 1974. *Lexicon of the Uzbek dialects of northeastern Tajikistan*. Filol. science. candidate... dis. Tashkent.
- Ishondadaev, D. 1967. *Some customs of word formation in Tajik and Uzbek dialects around Namangan (on the issue of interaction between Tajik and Uzbek languages)*. Filol. science. name ...dis. Tashkent.
- Gulyamov, Kh. 1983. *Uzbek-Tajik linguistic connection (lexical-etymological research)*. Tashkent: Science.
- Abdullaeva, D. 1999. *Phonetic features of the Ashoba dialect of the Uzbek language*. Philology. science. name ...dis. Tashkent.
- Uzokov, H. 1966. *Southern Fergana dialects of the Uzbek language (phonetic, morphological and lexical features)*. Philol. subject name ...dis. Tashkent.
- Pugachenkova, G.A. 1966. *Khalchayan. (k probleme khudozhestvennoy kulturi Severnoy Baktirii)*. Tashkent.
- Zarubin, I.I. 1925. *Spisok narodnostey Turkestanskogo kraya*. Leningrad.
- Turdialiyev, A. Kh. 2023. *The impacts of the Tajik language on Denov's Uzbek dialects*. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. (ISSN: 2660-6828). Volume: 11. <https://cajlp.centrastudies.org/index.php/CAJLPC/issue/view/46>
- Borovkov, A. K. 1952. *Tadjiksko-Uzbekskoe dvuyazychie*. Uchenye zapiski insti vostokovedeniya.
- Shaniozov, K. 1962. *Some comments about the Qarluq tribe and its language* // Issues in literature and linguistics, 4 books. Tashkent: Science.
- Shaniozov, K. 1999. *The Karluq State and the Karaluqs*. Tashkent: East.